



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 Sentyabr
№32

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-ҚЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
32-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
32-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 32-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ismatilloev Jobir Nusratullo o'g'li	
QASIDA JANRINING BADIY XUSUSIYATLARI	7
2. Xujanova Gulchehra Uralovna	
YUSUF XOS HOJIBNING HUQUQIY QARASHLARI	9
3. Qosimova Fazilat Xolmuminovna	
“MIFTOH UL-ADL” ASARINING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY AHAMIYATI	11
4. Tursunova Mukhlisa Vakhobovna	
CHARACTERISTICS OF POSTMODERNISM AS A LITERARY TREND.....	13
5. Rizayeva Barno Mamasoliyevna	
YUSUF XOS HOJIBNING NUTQ ODOBI HAQIDAGI QARASHLARI.....	15



АДАБИЁТ

QASIDA JANRINING BADIY XUSUSIYATLARI

Ismatilloev Jobir Nusratullo o'g'li,
mustaqil izlanuvchi.
tel: +998906777080

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy she'riyatimiz janrlaridan biri qasidaning boshqa janrlardan farqli jihatlari xususida so'z yuritilgan. Hamda mumtoz va zamonaviy she'riyatimiz vakillari tomonidan yaratilgan ayrim qasidalarining mavzulariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: janr, qasida, nasib, gurizgoh, madh, vasf, qasidai bahoriya, tarixiy shaxs, makon, falsafiy, ijtimoiy.

Qasida lirik tur janrlaridan biri bo'lib asosan hukmdorlar, tarixiy shaxslar va voqealarga bag'ishlab yozilgan. "Qasida arabcha "qasd" so'zidan olingan bo'lib "maqsad", "niyat" "biror ishga maqsad qilish" degan ma'nolarni bildiradi". [1-34 bet] Turkiy va forsiy she'riyatga arab adabiyotidan kirib kelgan ushbu janr o'ziga xos kompozitsion shaklga ega bo'lib, boshqa she'riy janrlarga nisbatan murakkabdir. U nasib – muqaddima, gurezgoh – muqaddima bilan asosiy qismni bo'lovchi bayt yoki baytlar, madh – asosiy qism va mamduh – she'rda madh etilgan kishini duo qilib yakunlanuvchi xulosadan iborat bo'ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan qismlarning barchasi qasidada mavjud bo'lsa qasidai tom ya'ni to'liq qasida, ayrim qismlari bo'lmasa qasidai mujarrid sanalgan. Qasidada baytlar miqdori chelanmagan. G'azal va masnaviy kabi qofiyalanadi. "Qasida o'tmish adabiyotining siyosiy lirikasidir. Chunki ko'pchilik qasidalar davlat arboblarga va siyosiy yoki harbiy voqealarga bag'ishlab yozilgan. Qasida asta-sekin saroy aristokratik adabiyotining janriga aylanib borgan". [2-319 bet]

Zamonaviy o'zbek adabiyotida G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi xalqimizning sevimli shoirlari bu janrning go'zal namunalarini yarganlar. Bugungi kunda aksar kitobxonlar qasida janri xususida so'z ketganda tor doirada, faqat shoirlar tomonidan biror bir makon – shahar yo mamlakatning ta'rifu, tavsifiga bag'ishlangan yoki biror bir taniqli shaxslar madh etilgan she'riy asarni tushunishadi. Biroq, bu bir yoqlama qarash. Qasida janri mumtoz adabiyotimizda mavzu ko'lami jihatdan ancha keng bo'lgan. "Voqelikni aks ettirish usuli, xarakteri va mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan: qasidai bahoriya – bahor tasviriga bag'ishlangan qasida; qasidai holiya – o'z ruhiy holati ifodalangan, taqdirdan, hayotdan shikoyat qilish g'oyalari aks etgan qasidalar; qasidai ishqiya – ishqiy mavzudagi qasidalar; qasidai xamriya – may haqida qasida; qasidai faxriya – shoirning o'z-o'zidan faxrlanishiga bag'ishlangan qasidalar; qasidai xazoniya – kuz fasliga bag'ishlangan qasida; qasidai masnu' – san'atli ya'ni bezakli qasida". [3-49 bet]

Mumtoz adabiyotimizda qasidaga xos bo'lgan elementlar ilk bor XII asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutag'u bilig" asarida namoyon bo'lsa, qasidaning mukammal namunalarini XV asr Samarqandda temuriylar saroyida faoliyat yuritgan shoir Sakkokiy tomonidan yaratildi. Shoir devoning bizgacha etib kelgan qismida 11 qasida mavjud. Bu qasidalar mavzu jihatdan madh qasida sanaladi. Chunki ularning to'rttasi Mirzo Ulug'bekka, to'rttasi Arslon Xoja Tarxonga, qolganlari Shohruh Mirzo, Xalil Sulton va Xoja Muhammad Porsoga bag'ishlangan.

Qasidai xazoniya ya'ni kuz haqidagi qasida Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Hazrat Navoiyning o'n bitta qasidasi mavjud bo'lib, Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan yozilgan "Hiloliya"dan boshqa barchasi forsiyda bitilgan. "Devoni foniy"dan o'rin olgan qasidalar ikki turkumda jamlangan bo'lib, alohida nomlar bilan atalgan. Birinchi turkum "Sittayi zaruriya" ("Olti zarurat")da 6 qasida, ikkinchi turkum "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl")da to'rtta qasida kiritilgan. Nomidan anglashilganidek ikkinchi turkumdan "Saraton" (Yoz), "Xazon" (Kuz), "Bahor" va "Day" (Qish) qasidalari o'rin olgan.



**Vazod bodi bahor ehyoti gulistonro,
Zi anfosi Maseho toza sozad olami jonro. [4-302]**

Shoir qasida matla'sida bahorning yaratuvchanligi, uning kelishi bilan olam gulu-giyohlarga burkanishini Iso Masihning jonsiz jasadga ruh baxsh etishiga qiyos etadi. Alisher Navoiy "Fusuli arbaa"da fasllarga xos xususiyatlarni go'zal tashbehlar vositasida ifodalash bilangina cheklanilgan emas. "Kuz" qasidasidan boshqa qasidalarda Husayn Boyqaro madhiga katta e'tibor qaratilgan.

Qasidai holiya mazmunidagi qasidalarni Munis Xorazmiy ijodida kuzatishimiz mumkin. Shoirning "Erur charx berahm", "Charog'i nola" kabi qasidalari shular jumlasidandir. Uning devonidan o'rin olgan "Vahki davron zulmidin..." misralari bilan boshlanuvchi qasidada ham shoirning zamona nosozligidan ko'rgan jafolari o'z ifodasini topgan. Ularda Munisning falsafiy qarashlari ham yorqin ifoda etilgan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida esa O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning "Inson" qasidasi falsafiy qasidaning eng go'zal namunaslaridan biri sanaladi.

Munis Xorazmiy qasidalari orasida shoir o'z tug'ulib kamolga etgan ko'hna zaminga bag'ishlab bitilgan "Xorazm" qasidasi o'z davrida g'oyat mashhur bo'lgan. Makon vasf etilgan qasidalardan yana biri Komil Xorazmiy tomonidan yozilgan bo'lib, "Dar bayoni ta'tifi vasfi Toshkand" ("Toshkent ta'rifi va tavsifi bayoni") deya nomlanadi. Shoir ikki bor 1891 va 1896-1897-yillar Toshkentga kelgan. Shaharning so'lim tabiati, musaffo havosi, ruslar bosqinidan so'ng amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar Komil Xorazmiyda katta taassurot qoldirgan. Shu bioz ham yuz misradan iborat qasida dunyoga kelgan.

**Vus'atu nazhatda rashki jannatul-ma'vodur,
Kavsaru tasnimi nahru jo'ybori Toshkand. [5-215 bet]**

Quyidagi misralarda ham shoir g'oyat kuchli mubolag'alar bilan tarif etib, Toshkentni jannat rashkini keltiruvchi ma'vo, anhorlarini esa kavsarga qiyos etgan.

Xulosa qilib aytganda qasida she'riy janrlar orasida hajm jihatidan ham, ijodkorning teran falsafiy mushohadalari, yuksak g'oyalari, orzu-maqсадlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bu janrda yaratilgan asarlarni kengroq o'rganish janrning bizga ayon bo'lmagan qirralarini ochishda asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O.Karimov. Mumtoz she'riyat janrlari (o'quv qo'llanma). – N.:Namangan, 2015. – 78 b.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи –Т.:Ўқитувчи, 1976. – 656 б.
3. Matjonov S.Adabiyot (majmua) –Т.: Sharq, 2011. –420 b.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 20 том. Девони фоний. –Т.: Фан –1990. 526 б.
5. Комил Хоразмий. Девон –Т.:Ф.Фулом НАСН –1975. 224 б.



YUSUF XOS HOJIBNING HUQUQIY QARASHLARI

Xujanova Gulchehra Uralovna
f.f.nomzodi TDYU akademik litseyi
o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi
Telefon: 97 412 85 83

Annotatsiya: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy xalqlar tarixini, ijtimoiy-siyosiy tuzumini aks ettirgan birinchi badiiy dostonidir. Unda odob-axloq, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabat-muomala me'yorlari haqida bahs qilinadi, davlatni idora qilish usullari bayon qilinadi. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida davlat siyosatiga oid fikrlarni, adibning huquqiy qarashlarini yoritishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: elig, Kuntug'di, O'gdulmish, saroy, siyosat, bek, boylik, lashkar, adolat, davlat.

"Qutadg'u bilig" asari adabiy asarbo'lib, badiiy adabiyotning tipik namunasidir. Birinchi turkiy doston. "Qutadg'u bilig" axloq va odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan, jam qilgan qomusdir. "Qutadg'u bilig" didaktik asar, ta'lim-tarbiya va odob-axloq darsligidir.

Yusuf Xos Hojib barcha bahsni ta'lim atrofida olib borar ekan, u o'z davrining tuzumidan, ijtimoiy va siyosiy, moddiy va ma'naviy hayotdan, o'sha davrning turli tabaqalari, toifa va guruhlarini, ularning rasm qoidalari, hunar va kasb-u korlari, jamiyatdagi mavqelari, tutgan o'rirlari, davlat apparatining qanday asosga qurilganligi, tutgan mavqeiga qarab har bir tabaqaning dunyoqarashi, qabilalar, urug'lar, ma'muriy bo'linish, saroy ichi, ichki siyosat, xullas, ko'hna o'tmish hayotining har sohasidan ma'lumot beradi.

Adib barcha sohadan ilmi bor bo'lgan olim, yetuk faylasuf, fozil, davlat arbobi, fan va madaniyat homiysi, hayotning ikir-chikirlaridan tortib osmon jismlarining sirlarigacha tushunib yetgan barkamol kishi. Adib o'z zamonasidan shikoyat qiladi, adolat, insof yo'qolganidan zorlanadi. U mukammallikka intiladi.

Dostonda to'rt asosiy qahramon bor. Ularning har biriga ramzan muayyan bir ezgu tushuncha – ma'naviy qadriyatning timsoli yanglig' qaralib, alohida ma'no-mazmun yuklatilgan. Kuntug'di (chiqqan Quyosh) – elig, ya'ni hukmdor. U adolat ramzi bo'lib kelgan. Oyto'ldi (to'lgan Oy) – vazir. U baxt va davlat ramzi hisoblanadi. O'gdulmish (aqlga to'lgan) – vazirning o'g'li. U aql va zakovat ramzi yanglig' tasvirlangan. O'zg'urmish (uyg'ongan) – vazirning qarindoshi. U asarda qanoat, ofiyat, ya'ni sog'lomlik ramzi sifatida qalamga olingan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, asarda turli sohalardan ma'lumotlar berilgan. Biz esa adibning huquqiy qarashlari xususida to'xtalmoqchimiz. Beklar qanday bo'lishi, vazirlar va lashkarboshilar qanday bo'lishi xususida elig ya'ni Kuntug'dining O'gdulmish bilan savol-javobida shunday deydi. Shoh- Kuntug'di aql zakovat sohibi-O'gdulmishdan beklar qanday bo'lishi lozim deb so'raydi. Ogdulmish bekning farzandi bek bo'ladi, nasli toza, adolatli bo'ladi deydi. Ammo buni siz ko'proq bilasiz deydi. Chunki Kuntug'di siz adolatli beksiz hamda ota-bobolaringiz ham beklardan deydi.

Kuntug'di beklik sifatlarini bayon etishda barcha insoniy fazilatlar mujassam bo'shi shartligini ta'kid etadi. Bek rostgo'y, xalqqa manfaat keltiradigan, xalq foydasini o'ylaydigan, nihoyatda hushyor va ziyrak, mehnatkash bo'lishi kerak deydi.

Ikki narsa el uchun mustahkam bog'(ich)dir,

Biri-hushyorlik, biri-siyosat, (bular) elning asosidir.

Beklarning qo'rqmas dovyurak bo'lishi haqida quyidagicha izoh keltiradi: Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, bu itlar arslon kabi bo'ladi. Agar itlar arslonlarga bosh bo'lsa, bu arslonlar itlarga teng bo'ladi deydi.

Beklarning saxiy bo'lishi davlat siyosati uchun muhimligini ham ta'kidlab ketadi. Ya'ni har tomondan saxiy va mard bek uchun lashkarlar yig'ilib kelishini qo'shini mustahkam bo'lishini aytadi.

Adolatli bek uchun quyidagi to'rtta narsa muhim deydi:

- yurtning tinch saqlash va kengaytirish uchun katta qo'shin (lashkar),



- lashkar saqlash uchun behisob boylik,
- behisob boylik uchun badavlat xalq,
- xalq badavlat bo'lishi uchun adolatli siyosat yurgizish kerak deydi.

Bularning birortasi bo'lmasa, to'rttasi ham bo'lmaydi. To'rttasi ham bo'lmasa beklik ham bo'lmaydi. Bek besh narsani o'zidan uzoq tutishi lozim deydi: shoshqaloqlik, ochko'zlik, jaholat, buzuq fe'llilik, yolg'onchilik. Yusuf Xos Hojib odil shoh va adolatli davlatni orzu qiladi va buni asoslab Kuntug'di tilidan yozadi.

O'gdulmish vazir qanday bo'shi haqida shunday deydi: davlat siyosatini yaxshi yurgizadigan, ezgu so'zli, xushmuomala, zakovatli mulohazali, ko'zi to'q, nasl-nasabli, or-nomusli, bama'ni kishi bo'lishi lozim deydi.

O'gdulmish davlat uchun muhim bo'lgan lashkarboshilar, sipohsolar, darvozabon, elchi, hukmdor ishini yurituvchi (xat yozuvchi) kotib, ulug' Hojiblik, xazinachi, xon oshpazi (xon solor), bosh sharobchining qanday bo'lishi haqida aytib o'tadi. Yuqoridagi kishilar sigati har biri bir bobdan berilgan. Yana podshoh saroyida saqlanadigan xizmatchilar va ularning ehtiyojlari ham aytib o'tiladi.

Davlat boshqaruvida asosiysi bilim kerakligi haqida Yusuf Xos Hojib shunday deb yozadi.

Iforni yashirsang bo'yi bildirar,

Ilmni yashirsang til oshkor etar.

Bilim boylik erur, hech ado bo'lmas,

Qaroqchi yo o'g'ri tunab ketolmas.

Xulosa qilib aytganda, rahbar har tarafama boshqalardan ustun bo'lmog'i darkor. Hozirgi zamonda boshqaruv ilmi, rahbarga qo'yiladigan talablar mukammal bir ilm darajasiga ko'tarilgan. Bu masalalar o'zbek adabiyotida bundan o'n asrlar ilgari shu darajada tahlil etilganining o'zi jahon tamadduniga xalqimiz nechog'li buyuk hissa qo'shganini yana bir karra isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Qutadg'u bilig" Qayum Karimov. Fan nashriyoti 1971-y.
2. "Qutadg'u bilig" Boqijon To'xliyev. Toshkent. 2014.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. Kirishdan 11 bobgacha. Emin Usmon tarjimasi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html>



“MIFTOH UL-ADL” ASARINING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

Qosimova Fazilat Xolmuminovna
TDYU akademik litseyi o‘zbek tili va
adabiyoti o‘qituvchisi
Telefon: +99890-928-03-24

Annotatsiya: O‘zbek xalqining milliy, madaniy, ma’naviy merosi ming yillar davomida jamiyatni va jamiyatni quruvchi shaxsni barkamollik ruhida tarbiyalab kelayotgan qudratli manbadir. Ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga molik bo‘lgan badiiy merosimizdan biri Xojaning qalamiga mansub pand-nasihat ruhida yozilgan asar „Miftoh ul-adl“ dir. Ushbu maqolada „Miftoh ul-adl“ asarining ma’naviy ma’rifiy ahamiyati yoritildi.

Kalit so‘zlar: „Miftoh ul-adl“, didaktik adabiyot, Xoja, obraz, odil shoh, Nushirvon, xalq og‘zaki ijodi.

„Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim“¹

(O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Xoja adabiyot tarixida ko‘proq hikoyalar muallifi sifatida mashhurdir. Uning bizgacha ikki hikoyalar to‘plami: Temur Sultonga bag‘ishlangan „Miftoh ul-adl“ („Adolat kaliti“), Kistan Qaro Odilga bag‘ishlangan „Gulzor“ asarlari yetib kelgan. „Miftoh ul-adl“ 1508-1510 yillarda, „Gulzor“ 1538- yilda yozilgan. Har ikkisinin birgalikda muqovalangan bir necha nusxasi saqlanib qolgan bo‘lib, ular O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

„Miftoh ul-adl“ katta-kichik mansabdorlarga, shariat uchun o‘ziga xos yo‘riqnomadir. Kitob o‘n besh bobdan iborat. Har bir bobda ma‘lum bir ijtimoiy tabaqa yoxud masala atroficha tavsiflanadi, din-iymon nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi va ularga mos hikoyalar beriladi. Masalan, unda olimli sultonlar (2), zolim sultonlar (3), hukm qilmoq (6), da‘vo qilmoq (7), ont ichmoq (8), o‘g‘rilik (9), zino (10), ov qilish (15) kabilar haqida maxsus boblar keltirilgan va har biriga hikoya ilova qilingan.

„Miftoh ul-adl“ va „Gulzor“dagi hikoyatlar didaktik mazmunga ega. Muallif ularda biror kichik voqeani hikoya qilish orqali kitobxonlarga pand-nasihat qiladi, ularga o‘git beradi, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy-ta‘limiy masalalarga doir xulosalar chiqaradi. U pand-nasihat qilish va o‘git berish yo‘li bilan adolat va osoyishtalik o‘rnatish, zolim podshoh va amaldorlarni jilovlash, davlatni qat‘iy qonun-qoidalar asosida boshqarish, kishilarning xulq-atvoridagi kamchiliklarni, turli ijtimoiy tabaqalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin deb o‘ylaydi.

„Miftoh ul-adl“ da xilma xil obraz va xarakterlar yaratilgan. Ular turli

ijtimoiy tabaqalarga munosib bo‘lgan kishilar: shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho‘ponlar, darveshlar, o‘g‘rilar, bezorilar va boshqalardir. Bir ijtimoiy tabaqaga mansub bo‘lgan kishilar mushtarak va individual xususiyatlari bilan gavdalantiriladi. Yozuvchining tushunishicha, bir ijtimoiy tabaqaga mansub bo‘lgan kishi turlicha xarakterda bo‘lishi, ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, odil va zolim podshohlar, donishmand va munofiq vazirlar, vijdonli va bezori sipohiylar obrazini yaratadi. Ko‘pincha bunday kishilarning salbiy obrazlarda yozuvchi ularga xos bo‘lgan realistik xislatlarni badiiy umumlashtirib bersa, ijobiy obrazlarning faoliyati va qiyofasida adolatli podshoh, donishmand vazir haqidagi orzu-tilaklarini mujassamlashtiradi. Dehqon va cho‘pon kabi mehnatkash tabaqa namoyondalari halol, to‘g‘ri, aqlli, irodali va or-nomusli kishilar sifatida tasvirlanadi. Bu xususiyatlari bilan „Miftoh ul-adl“ hikoyatlari yanada xalq og‘zaki ijodiga yaqin turadi.

Hikoyatlarning ayrim obrazlari tarixiy shaxslarning nomi bilan atalsa-da, biroq ular bu tarixiy shaxslarning obrazi emas, balki badiiylashtirilgan obrazlaridir. Ular og‘zaki va yozma adabiyotda allaqachonlar mana shunday badiiylashtirilgan obrazlarga, ko‘pincha orzu va xayoldagi odil va ma‘rifatparvar podshohlarning ideal obraziga aylanib ketgan edilar. Bu, albatta, No‘shiravoni odil nomi bilan ham bog‘liq. Yozuvchi mamlakat va xalq taqdirini podshohga, uning saroy ahllariga

¹ Sh. Mirziyoyev. Tabrik nutqidan <https://daryo.uz/category/mahalliy/>



bog'laydi. Bu fikrlarni dalillash maqsadida "No'shiravon va hakim" hikoyatini keltiradi.

—No'shiravon beklari va hakimlarini yig'ib, xalq bilan qanday munosabatda bo'lish haqida kengashganida beklar oliq-soliqni mustahkamlash kerak, deyilar. Donishmand Buzrugmehr esa bu xato yo'ldir, bu yo'l el- yurtni ham, davlatni ham xonavayronlikka olib boradi, deydi. Uning taklifi bilan beklar bir joyga, uning o'zi boshqa bir joyga ovga chiqadilar va shikorlarini podshohga keltirib beradilar. Beklar birinchi kuni ko'p ov ovlaydilar, biroq ikkinchi kuni ovsiz qaytadilar, chunki birinchi kundagi dahshatli ov hayvonlar va qushlarni to'zg'itib, qo'rqitib qo'ygan edi. Donishmand esa oz bo'lsa ham, har kuni ov bilan qaytadi. Podshoh vazirning oliq-soliqni ko'paytirishga qarshi e'tirozi to'g'ri ekanini e'tirof qilib, adolat bilan ish ko'radi¹.

Bu hikoyat quyidagi masnaviy bilan tugaydi:

Raiyatni tadbir ila rom qil,
Adolat saririda orom qil.
Raiyatga adl ila qilsang maosh,
Kam o'lmas saxo sufrasi ichra osh.
Chiqorg'il oning dudi ohidan.
Sitamkash agar oh cheksa sahar,
Kuyar ohining o'tidin bahr-u bar.
Eshik yopma mazlumning yuziga,
Ko'zung och, quloq sol oning so'zig'a²...

Muallif podshohning xalqqa posbon va cho'pondek mehribon bo'lishni istaydi. Shu g'oya asosida u adolatli va adolatsiz podshohlar, vazirlar, amaldorlar obrazini yaratadi, "posbon" va "cho'pon"larni maqtaydi, ulug'laydi, "bo'ri"larni qattiq qoralaydi, birlarini jazolaydi, birlarini qayta tarbiyalaydi. Bu fikrlar Poshshaxo'ja ijodiga Navoiyning ta'sirini ham yaqqol ko'rsatadi.

"Mifto'ul-adl" asarini o'qitish orqali yoshlarning ma'naviy dunyosini kengaytiramiz. Insoniy fazilatlariga nisbatan intilishini mustahkamlaymiz. Ushbu asarni o'qigan o'quvchi ongida to'g'riso'zlik, xushmuomalilik, omonatga xiyonat qilmaslik, iltifotlilik, adolatlilik, nafsni tiyish kabi fazilatlar mustahkam o'rnatilib, ilm o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi.

Asarda berilgan hikoyalar, hajman ixcham, tili ham ancha sodda tushunarli. O'quvchi uchun qiziqarli, zero ilm o'rganish, kitob o'qish orqali ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashimiz kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Abu Rayhon Beruniy esa "Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi"-deydi. Ahmad Yugnakiy: "Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra, ilmli bo'l, baxt yo'lini izla"-deb insoniyatga murojaat qiladi. Shunday ekan, ilim o'rganish jarayoni va tarbiya birga olib borilishi kerak bo'lgan jarayondir. Adabiyot darslari tarbiya, ruhiyat darslari desak mubolag'a bo'lmaydi. "Mifto'ul-adl" asari ham o'quvchi yoshlar uchun katta ma'naviyat sarchashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пошшоҳўжа. Мифтоҳ ул адл ва Гулзордан. –Тошкент: Давлат бадиий адабиёт, 1962
2. Мирзаахмедова М. Хожа ҳаёти ва ижодий фаолияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 1963 й. 4 – сон. 62 – 66 бет.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Тошкент: Маънавият, 2004
4. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. -Т.: Ўзбекистон, 2012 –Б.
5. <https://ziyouz.com/>
6. <https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/qo'shimcha/rivoyatlar>

¹ Пошшоҳўжа. Мифтоҳ ул адл ва Гулзордан. –Тошкент: Давлат бадиий адабиёт, 1962 40 – бет.

² Пошшоҳўжа. Мифтоҳ ул адл ва Гулзордан. –Тошкент: Давлат бадиий адабиёт, 1962 41 – бет.



CHARACTERISTICS OF POSTMODERNISM AS A LITERARY TREND

Tursunova Mukhlisa Vakhobovna

Teacher of Uzbekistan State World Languages University

Mobile number: +998(99)7220506

Email: mukhlisa_vakhobovna@mail.ru

Annotation. In the article, another explicit characterisation of postmodernism is carried out by emphasizing its inclinations towards relativism and pluralism, its advancements in progressive rational questioning leading to destructive nature along with its remarkable historical traces in the mid XX century.

Key words: Postmodernism, relativism, pluralism, rational questioning, destruction theory.

When we try to give a general definition to the term literature, we are inclined to admit the fact that literature is supposed to be the reflection of social and political changes. In the 1960s, that same reflection was in full swing to be characterized as postmodernism in literary world either to reinstate “new sensibility” in newly emerged tendencies or as general opposition to earlier formed and advanced modernistic principles of writing style and rationality. Although postmodernism cannot simply be defined by putting a set of serious literary terms into a correct line of order and essence, its existence and distinction is undeniable. Postmodernists rejected so much and admitted so little that now they do not have any reliable assured faith in the absoluteness of any existing truth. So, briefly, postmodernism is the very latest philosophical and literary trend that has not brought any new ideologies but questioned every other existing ones if they were practically able to come up with any truths that human beings have longed for. While we look into the historic traces of postmodernism we end up there where we face modernism. Modernism had revolutionized the writing structure with some evident alterations in the traditional plot. Modernist writers saw a human being not as physical beings whose low-standardized lives are portrayed in realistic unidealized manners as realist authors preferred but as fully psychological beings who due to particular mental traumas are destined to live beyond the expected realities of the real life. They merely mastered flashbacks, flashforwardings, dreams, and many more in the characters’ stream of consciousness. However, “post” in postmodernism does not make it modernism plus another new characteristic to refresh its existing former ones. Postmodernism is the very answer for those who were eager to know what new or latest literary condition be like if modernism had already and fully accomplished its task of modernity. If modernists brought the literary plot into its complete entire form, now postmodernists are reversing the process by destroying the fictional plot to reveal how much fiction has been fictionalized but also to figure out if any truth was there under all that fiction, which turned fictional realities into the real life ideologies. The postmodernists see the significance of the ideas in the things where you have been able to answer them using your rationality. If one was able to come into a conclusion when his rationality was on then he must have been able to generate some serious set of life-long humanistic beliefs to build some values. Here postmodernists hugely rely on relativism and that’s why postmodernism is mainly characterized by relativism – the principle where knowledge, truth, and morality exist in relation to cultural preferences, social bondages or historical setting that evade from absolutism. Together with relativism, postmodern authors depend on pluralism that is known as a condition or system in which two or more states, groups, principles, sources of authority can coexist. Pluralists support the practice of holding more than one ecclesiastical office at a time, which can teach the readers some moral lesson on the fact that people live with differences and only true humanists find harmony in those distinctions that are well-defined not only in the colours but also in the ideologies.

Destruction might be considered another feature of postmodernism as far as from the motives of the notable postmodern works it gets clear that everything was designed and destined once to perish and while reaching the peak of its progress the things start progressing adversely. As far as no literary scholar is tending to argue that modernism was the culmination of the literary progress, now we assured that postmodernists are reversing that progress. As the core founder of destruction theory, Jacques Derrida (1930–2004), a French philosopher, sees all conceptual systems as prone to a falsifying and distorting. In addition, any form of falsification and distortion can supposedly



be exposed by his controversial approach to understanding the world, the deconstruction method, a process of criticizing literary and philosophical texts, and political theories. His theory is surely the major contribution in the growth of postmodernism as a literary trend. However, its exposition of any literary text as the fabrication of realities might deprive us from our sincere adoration of fiction. Nevertheless, this inference is right only on the surface of the matters. His attitude as a postmodern leader theorist pushes the literary activists – writers and readers as well either to be sincerely devoted to the beliefs bearing in mind its true values or leave them behind if they have no essence to make up ones' realities. His literary theory, by far the most ideal one in the contemporary postmodern life, is challenging every rational living being and wants a decent response to the question whether a human being is able to live in a place where nothing has its value.

Postmodernism, classified as the genuine literary trend of the present world, has to be defined through those features that have been enumerated above in order to help the literary world to identify its current position together with its future expansion.

References

1. Appignanesi R., Garratt Ch. Introducing Postmodernism. – UK.: 1999.
2. Butler Ch. Postmodernism. A Very Short Introduction. – US.: 2002.
3. Forghani N., Keshtiaray N., Yousefy A. A Critical Examination of Postmodernism Based on Religious and Moral Values Education. – Canada.: 2015.
4. Habib M.A.R. Literary Criticism from Plato to the Present. – UK.: 2011.



YUSUF XOS HOJIBNING NUTQ ODOBI HAQIDAGI QARASHLARI

Rizayeva Barno Mamasoliyevna

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on
tumanidagi 66-umumtalim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998 912472657

Annotatsiya: Maqolada Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishi va eng yuksak insoniy fazilatlari haqidagi qarashlarining ifoda etilishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Til ardami", so'zlash, tilmochi tarjimoni, til orqali, bilim olish, tilga e'tibor, ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar, ortiqcha, malol, bilimning belgisi, oqar suv, barkamol inson.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asari axloqiy-ta'limiy, pand-nasihat ruhida yaratilgan bo'lib, asarda XI asr qoraxoniylar saltanatining eng yuksaklikka ko'tarilgan davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealari to'rt qahramon munozarasi, savol-javobi jarayonida yoritib berilgan.

"Qutadg'u bilig"da inson ruhiyati, uning suhbat davomida nimalarga ahamiyat berishi lozimligi, qayerda qanday so'zlash, qayerda sukut saqlab tinglash kerakligini go'zal baytlar vositasida ifodalab berilgan.

Dostonning bir necha bobi odob va axloq masalalariga bag'ishlangan bo'lib, "Til ardami" (Til odobi) nomli 7-bob ham shular jumlasidandir. Unda shoir inson tilning, ya'ni insonning o'zgaralarga munosabatida shirinso'z bo'lish fazilatlari va noo'rin so'zlar bilan muomalada bo'lish qusurlari haqida fikr yuritadi. Buyuk mutafakkir o'z asarida tilni o'qish, bilim olish vositasi sifatida sharhlaydi. Til bilan inson ro'shnolikka erishadi, ko'p va behuda so'zlash esa insonga xos bo'lmagan qusur ekanligi ijodkor tomonidan atroflicha tavsiflanadi.

Buyuk mutafakkir o'quv va bilimning tilmochi tarjimoni til ekanligini quyidagi misralarda shunday ifodalaydi:

Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda.
Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,
Amal qil bu so'zga o'zingga ish et.
Balo keltiradi boshga bu tilim,
Boshimni u kesmay, qilayin tilim.
So'zingni tiyib yur, boshing yormagin,
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

Demak, insonga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Kishi izzat, obro-e'tiborni ham til orqali topadi. O'ylamasdan noo'rin so'zlash, tilga e'tibor bermaslik kishiga yomonlik keltiradi.

Adibning behudaga ko'p so'zlashning foydasi yo'qligi, kishi ortiqcha so'zi bilan o'ziga ziyon keltirishi haqidagi ushbu fikrlari qimmatlidir:

Ortiq so'zda aslo bo'larmi foyda,
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda.
Hech qachon ko'p gapirma.
Juda oz so'zla.

Buyuk shoir ortiqcha so'zlarni gapiraverish tinglovchi ko'ngliga malol keladi va uni eshitishni xohlamaydi, natijada uning boshi egiladi, deb ta'kidlaydi:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,
Ortiq, so'z bu boshni etadi egik.

Kishi aytadigan so'zlarining ma'nosini bilishi lozimligi va o'rinsiz gaplari uning boshiga kulfat keltirishi haqidagi dostonidagi ushbu bayt xalqimiz orasida keng tarqalgan:

Tilingni avayla — omondir boshing,
So'zingni avayla — uzayar yoshing.

Yusuf Xos Hojib bilimli kishi ezgu so'zlarni aytadi va bilimi ko'p, har narsadan xabardor odamlar esa yaxshi suhbatdoshga aylanadi, deya, donolarning so'zlarini oqar suvga o'xshatadi:



Dono so`zi go`yo oqar suv erur,
Suv oqsa yer uzra ko`p ne`mat unur.
Donolar bo`ladi misoli chimzor:
Qayga oyoq qo`ysang, u yerda suv bor.
Bilimsizning ko`ngli qum erur go`yo,
Ut-o`lan o`smaydi kirsam ham daryo.

Bilimning belgisi ikki xususiyatga tayanadi va ular tufayli kishining yuzi yorug`, aytilmagan so`z tufayli kishning ko`ngli to`q, dili xotirjam bo`ladi, deydi alloma:

Tananing ulushi tomoqdan kirar,
Jon ulushi — so`z quloqdan kirar.

Dostonda so`zni donodan eshitishni va kuchli mulohazalarga tayanib fikr yuritish zarurligi quyidagi misralarda ta`kidlab o`tilgan:

Sen bilimli so`zini eshit, bo`yin tovlama,
So`ramas (lari)dan oldin, so`z (lar)ingni so`zlama.

“Qutadg`u bilig”da b so`zni bilim bilan so`zlashga, ya`ni bilimli kishi so`zning ma`nosini anglay olishini, bilimsiz esa tilini tiyishini alohida ta`kidlab o`tadi:

Bilimsizning tili doimo berk bo`lishi kerak,
Bilimlining tili so`zga erkin bo`lishi kerak.

Muxtasar qilib aytganda, dostonning “Til odobi” bobidagi nutq madaniyati va so`zlashish odobi xususidagi qimmatli fikrlar bugungi yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatiga ega.

Senga so`zladim men so`zim, ey o`g`il.
Senga o`git berdim o`zim, ey o`g`il.

Yuqoridagi misralarida ta`kidlanganidek, buyuk mutafakkirning purma`no fikrlari asrlar osha keyingi avlodlar uchun muhim dasturilamal bo`lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent. 1990.
2. I. Adizova. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan. 2009.
3. N. Mahmudov. O`qtuvchi nutqi madaniyati. Toshkent. 2007.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
